

---

# Akademik litsey o'quvchilari Janubiy Koreya Respublikasiga o'quv kurslariga yuboriladi

**Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi** va Kvangju Ayollar Universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. **Kvangju Ayollar Universiteti** xodimlari akademik litseyga tashrif buyurib, litsey rahbariyati va o'quvchilari bilan uchrashdi.

Tashrif davomida akademik litsey ijrochi direktori, Islomov Dilshodxon va Kvangju Ayollar Universiteti Xalqaro Ayirboshlash Bo'limi Direktori Kim Hye-Jong o'rtasida uchrashuv o'tkazilib, **hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.**

Shuningdek, hamkorlik aloqalari doirasida akademik litsey o'quvchilarini Kvangju Ayollar Universitetiga **o'quv kurslariga yuborish**, hamda o'qituvchilar **stajirovkasini o'tkazish kelishib olindi.**

